

World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy
Hosted Online from Toronto, Canada
Date: 26th October, 2026
Website: https://econferencia.com

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATIDAGI DEMOGRAFIK JARAYONLAR

Sh. Xoliqov
QarDU mustaqil izlanuvchisi.

Abstract

2017–2018-yillarda Qashqadaryo viloyatida demografik ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, 2017-yilda tug‘ilganlar soni 76 607 kishini tashkil etib, 2016-yilga nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, 2018-yilda Muborak, Kitob, Koson tumanlari va Qarshi shahrida, ayniqsa Chiroqchi tumanida yuqori o‘sish qayd etildi. 2019-yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, viloyatda aholi zichligi 1 kv.km ga 120 kishini tashkil qilgan holda, eng ko‘p aholi Chiroqchi (400,0 ming kishi, 12,4 %), Koson (278,2 ming kishi) tumanlari va Qarshi shahrida (270,4 ming kishi), eng kam aholi esa Muborak (84,8 ming kishi) va Mirishkor (116,8 ming kishi) tumanlarida istiqomat qilishi aniqlandi[1].

Viloyat mehnat resurslari 2018-yilda 1806,8 ming kishini (jami aholining 56,8 %i) tashkil etib, shundan 1356,3 ming nafari (74,9 %i) iqtisodiy faol aholi hissasiga to‘g‘ri keldi[2]. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar 1222 ming kishiga (bandlik darajasi 90,3 %) yetib, ular asosan qishloq xo‘jaligi (24,6 %), qurilish (13,7 %) va savdo (10,1 %) sohalarida mehnat qilmoqda, ishsizlik darajasi esa 9,7 foizni (131,3 ming kishi) tashkil etdi. Tumanlar kesimida iqtisodiy faol aholining eng yuqori ko‘rsatkichlari Chiroqchi tumani (146,0 ming kishi) va Qarshi shahrida (130,6 ming kishi), eng quyi ko‘rsatkichlari esa Mirishkor (54,7 ming kishi) va Muborak (46,2 ming kishi) tumanlarida kuzatildi[3].

[1] Қашқадарё вилоятининг статистик ахборотномаси. 2019 йил. 53-б.
[2] Қашқадарё вилоят стаститика бошқармасининг жорий архиви.
[3] Қашқадарё вилоят стаститика бошқармасининг жорий архиви.

Qashqadaryo viloyatida aholi zichligi, ya'ni 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni yildan-yilga muntazam oshib borgan. Xususan, bu ko'rsatkich 2017 yilda 108,1 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 110,2 ga, 2019-yilda 112,5 ga, 2020-yilda 114,8 ga va 2021-yil boshiga kelib 116,7 kishiga yetgan[4].

2019-yil 1-iyul holatida viloyatda 21 ta QFY va 723 ta MFY joylashgan va ularning hududida 3240,3 ming nafar (shahar aholisi 1394,6 ming, qishloq aholisi 1845,7 ming kishi) aholi istiqomat qiladi va yil boshidan 27,2 ming kishiga yoki 0,8 foizga ko'paydi. Aholi zichligi 1 kv. km. ga 112,9 kishiga to'g'ri keladi. Qarshi shahri aholisi 273,1 ming kishini tashkil etdi[5].

2020-yilda Qashqadaryo viloyatining jami aholisi 3 280,4 ming kishini tashkil etgan. Shundan shahar aholisi 1 410,4 ming kishiga, qishloq aholisi esa 1 870,0 ming kishiga teng bo'lgan. 2021-yilda esa Qashqadaryo viloyatining jami aholisi 3 335,4 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichdan shahar aholisi 1 432,8 ming kishiga, qishloq aholisi esa 1 902,6 ming kishiga teng bo'lgan[6]. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati aholisining respublika jami aholisi sonidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etgan.

2021-yilda Qashqadaryo viloyati doimiy aholi soni 3335,4 ming nafar bo'lib, respublika aholisining 9,7 %ini tashkil etdi[7]. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika doimiy aholisi sonining 31,0 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,2 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,8 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shunga mos ravishda Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 33 %, mehnatga

[4] O'zbekiston demografik yillik to'plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to'plam / O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 11.
[5] Қашқадарё вилоятининг статистик ахборотномаси. Демографик ҳолат. – Қарши, 2019. – Б. 1–2.
[6] O'zbekiston demografik yillik to'plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to'plam / O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 18–19.
[7] Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент, 2021. – Б. 460.

layoqatli yoshdagilar 58,1 %, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 8,9 % ni tashkil qildi[8].

2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 3438,6 ming kishiga yetib, demografik tarkibda erkaklar – 1741,1 ming kishi, ayollarga – 1697,5 ming kishi nisbatan biroz ustunlik qilgani holda, qishloq aholisi 1965,6 ming kishi yoki 57,2 %, shahar aholisidan 1473,0 ming kishi yoki 42,8 % sezilarli darajada ko‘pligi hududda agrar xususiyat va an’anaviy turmush tarzi yetakchiligini namoyon etadi. Hisobot davrida tug‘ilishlar soni 42,5 ming nafarni, o‘lim ko‘rsatkichi esa 8,5 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o‘sishning 34,0 ming kishiga teng bo‘lgan[9] yuqori sur’ati viloyatning barqaror demografik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Oilaviy-ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinganda, 2022-yil iyul holatida 10,8 mingta qayd etilgan nikohga 2,0 mingta ajralish to‘g‘ri kelib, oilalar mustahkamligi darajasi nisbatan yuqoriligi (ajralishlar ulushi nikohlarga nisbatan 18,5 %) kuzatiladi. Biroq, tashqi va ichki migratsiya jarayonlarida ko‘chib kelganlar 5,0 ming kishini, ko‘chib ketganlar esa 8,7 ming kishini tashkil etib[10], manfiy migratsiya saldosi yuzaga kelgani viloyatda mehnat resurslarining tashqi hududlarga oqimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida aholi harakatchanligi kuchayganligidan dalolat beradi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, viloyatda yashovchi doimiy aholi soni 3482,6 ming nafarni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan 2,2 foizga ko‘paygan. Aholining 50,6 foizi erkaklar, 49,4 foizi ayollar hissasiga to‘g‘ri keladi. Qashqadaryoda aholining 42,9 foizi shaharlarda, 57,1 foizi qishloqlarda yashaydi. Fuqarolarining

[8] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумоти. 2021 йил.
[9]https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26364-qashqadaryo-viloyatining-demografik-ko-rsatkichlari
[10]https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26364-qashqadaryo-viloyatining-demografik-ko-rsatkichlari

56,2 foizi – mehnatga layoqatli yoshdagilar, 34 foizi – mehnatga layoqatli yoshdan kichik, 9,8 foizi – mehnatga layoqatli yoshdan katta[11] bo‘ldi.

Hududlar kesimida doimiy aholi soni solishtirilganda Koson (304,6 ming nafar), Qarshi shahri (289,6 ming nafar) va Qamashi (286,8 ming nafar) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Viloyatda 2022 yil yakuniga ko‘ra tug‘ilganlar soni 98,3 ming nafar bo‘lib, shundan 52,2 foizi o‘g‘il bolalar, 47,8 foizi qiz bolalarni tashkil etgan. Bundan tashqari, viloyatda nikoh qurgan oilalar – 32,2 ming, nikohdan ajrimlar – 3,5 ming, ko‘chib kelganlar – 9,1 ming, ko‘chib ketganlar – 16,2 ming nafardir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, nikohdan ajralishlarning 41,7 foizi bitta farzandi bilan, 32,5 foizi farzandsiz, 25,8 foizi 2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan[12].

2024-yilning 1-yanvar dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1826,7 ming kishi. Shundan 1316,6 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1220,1 ming kishi. 2023-yil yakunlari bo‘yicha bir yilda 89,4 ming yangi ish o‘rinlari yaratilgan[13].

Qashqadaryo viloyatida 2024-yilda tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lib, respublikada ikkinchi o‘rinni egalladi. Bu ko‘rsatkich asosan uchinchi va undan keyingi farzandlar sonining ko‘payishi, erta turmush va erta tug‘ruq holatlari bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, yosh onalardan tug‘ilgan chaqaloqlar ulushining ortishi va 40 yoshdan katta onalardan tug‘ilgan chaqaloqlar sonining o‘sishi tug‘ilish darajasining yuqori bo‘lishiga salbiy va ijtimoiy jihatdan jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[14].

[11] Қашқадарё вилоятининг демографик кўрсаткичлари // https://uza.uz/uz/posts/qashqadaryo-viloyatining-demografik-korsatkichlari_457438
[12] Қашқадарё вилоятининг демографик кўрсаткичлари // https://uza.uz/uz/posts/qashqadaryo-viloyatining-demografik-korsatkichlari_457438
[13] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari
[14] Дуснаев Ш.Э. Қашқадарё вилоятида аҳоли ўсиши ва туғилиш динамикаси: ижтимоий-демографик ёндашув // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2025. – Vol. 3, Issue 10. – P. 111.

Viloyatning demografik vaziyati va har 100 nafar mehnatga layoqatli aholiga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatsizlar sonining yuqori bo‘lishi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda bosimni kuchaytirishi ehtimolini ko‘rsatadi. Bu holat oilaviy va reproduktiv sog‘liqni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning ish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, tug‘ilish darajasi va demografik bosimni barqarorlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatida 2024-yilda 100,9 ming nafar chaqaloq dunyoga kelgan bo‘lib, respublikada jami tug‘ilganlar sonining 11 foizi viloyat ulushiga to‘g‘ri keladi. Viloyatda tug‘ilishning mutlaq soni 1991-yilda 71,0 ming nafardan 2006-yilda 53,3 ming nafargacha tushgan, 2007-yildan o‘sish jarayoni boshlanib uzluksiz 2023-yilgacha davom etdi. Viloyatda 2023-yilda eng yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichi (101,9 ming nafar) qayd etildi va 2024-yilda esa sezilarsiz biroz (-0,9 %) pasayish kuzatildi[15].

2024-yil holatiga ko‘ra, Koson tumani, Qarshi shahri hamda Qamashi tumani aholi soni jihatidan viloyatda eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lsa, Kitob va Yaqqabog‘ tumanlarida ham demografik ko‘lam yuqori bo‘ldi. Aksincha, Muborak va Mirishkor tumanlari hamda Shahrisabz shahri viloyat bo‘yicha aholi soni nisbatan kam bo‘lgan hududlar sirasiga kiradi. Aholi soni bo‘yicha viloyatda Koson tumani oldinda turadi (2024-yilda 312,1 ming kishi). Bu tumanda viloyat aholisining 8,7 %i istiqomat qiladi[16]. Qamashi tumanining aholisi 2024-yilda 293,1 ming kishihi tashkil etadi. Koson tumanida aholining o‘rtacha zichligi har 1km2 ga166,0 kishi, Qamashitumanida esa 110,2 kisini tashkil etadi.Qishloq tumanlari orasida aholi soniga ko‘ra yuqorida nomlari qayd qilingan tumanlardan keyin uchinchi o‘rinda Yakkabog‘ tumani (2024-yilda 282,5 ming kishi) turadi.

[15] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси. Демографик ҳолат бўйича статистик ахборотнома (2025 йил ҳолати). (qashstat.uz)
[16] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

Tumanda aholining o‘rtacha zichligi har 1 km2 ga 256,8 kishi bo‘lib, viloyatda bu ko‘rsatkich bo‘yicha Kasbi (327,6 kishi), Qarshi (302,3 kishi) tumanlaridan keyingi uchinchi o‘rinda turadi[17].

2026-yil boshi holatiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining jami aholi soni 3 717,0 ming kishini tashkil etib, hududiy demografik taqsimotda agrar va qishloq demografik tizimining ustuvorligi saqlanib qolmoqda. Viloyat aholisining 57,4 foizi, ya’ni 2 133,2 ming kishi qishloq joylarda istiqomat qiladi, shahar aholisi esa 1 583,8 ming kishini (42,6 foiz) tashkil etadi. Ichki ma’muriy-hududiy tuzilish bo‘yicha yirik shahar markazlari hisoblangan Qarshi shahrida 306,3 ming kishi va Shahrisabz shahrida 152,7 ming kishi istiqomat qilib, ushbu hududlarda shaharlashuv (urbanizatsiya) darajasi to‘liq 100 foizni tashkil etadi[18].

Viloyat tumanlari o‘rtasida demografik salmoq va demografik bosim darajasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda. Aholi sonining eng yuqori ko‘rsatkichlari Koson (326,7 ming kishi), Qamashi (306,9 ming kishi), Kitob (293,4 ming kishi), Yakkabog‘ (293,8 ming kishi) va Qarshi (286,5 ming kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Nishon (174,6 ming kishi), Dehqonobod (166,2 ming kishi), Mirishkor (134,9 ming kishi) va Muborak (97,0 ming kishi) kabi tumanlarda aholi zichligi va soni nisbatan past ko‘rsatkichga egaligi qayd etiladi[19].

Tumanlar kesimida shaharlashuv jarayonlarining kechishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, urbanizatsiya darajasi turli hududlarda keskin farqlanadi. Xusasan, Muborak (79,3 foiz), Koson (52,4 foiz) va Nishon (59,2 foiz) tumanlarida shahar aholisi salmog‘i nisbatan yuqori darajani tashkil etsa, Dehqonobod (19,0 foiz), Ko‘kdala (17,0 foiz), Guzor (23,5 foiz) va Shahrisabz (23,9 foiz) tumanlarida aholining mutlaq ko‘pchiligi qishloq hududlarida

[17] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari
[18] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari
[19] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

to‘plangan bo‘lib, agrar sohaning hududiy rivojlanishdagi yetakchi o‘rnidan dalolat beradi[20].

Umuman olganda, mutaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidagi aholi o‘sishi, joylanishi va demografik jarayonlarning borishi, respublikaning boshqa hududlaridan aholining o‘sish sur’ati, tug‘ilish va o‘limning kamayishi, farzand ko‘rish ketma-ketligini qisqarishi, aholi zichligi va joylashuvidagi o‘zgarishlar, o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ortishi, shahar aholisining o‘sishi qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migratsiyaning faollashuvi bilan izohlanadi.

[20] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari